

Tanlov fan. 11-sinf adabiyot. 4-BSB (25 ball)

Audiomatn tayyorlash.

Audiomatn uchun mavzular:

1. Gulxaniyning hayoti va ijodi. “Zarbulmasal asari”.
2. Uvaysiy hayoti va ijodi.
3. Anbar Otin hayoti va ijodi.

Muammo:

Kitobxonlik madaniyatining oqsashi.

O‘quvchilarda nutqiy ko‘nikmalarning kamligi.

Fikr-mulohazalardagi tizimsizlik.

Maqsad: O‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmani amalda qo‘llaydi

BSB talablari:

- a) ijtimoiy tarmoqlardan yoki qo‘shimcha adabiyotlardan mavzuga oid ma’lumot to‘plash.
- b) to‘plangan ma’lumotlarni tahrirlash;
- s) matnni aniq, ravon hamda yoqimli ovozda o‘qish;
- d) ovozni maxsus qurilma (telefon) orqali yozib olish;
- e) tahrirlab, taqdim etish.
- b) o‘qib eshittirilgan matnlar haqidagi fikr-mulohaza va takliflarni sinf doskasiga yozib, muhokama qilish.

Rivojlantiriladigan/shakllantiriladigan ko‘nikmalar:

1. Sheriklikda ishlash (bir-birini qo‘llab-quvvatlash, bir-birini to‘ldirish).
2. Tizimli (izchil) fikrlash.
3. O‘qib tushunish.
4. Tinglab tushunish.
5. Og‘zaki nutq.
6. Yozish (tahrirlash).
7. Tahlil qilish.
8. Xulosa chiqarish va amalda tatbiq etish.
9. Taqdim etish.

BSBni bajarish bosqichlari (xarita)

1. (O‘qituvchiga) O‘quvchilar o‘zlariga sherik tanlashlari uchun quyidagi yo‘naltiruvchi savollardan foydalaning:

1.1. Kim matnni rolga kirishib o‘qiy oladi?

1.2. Kim matnni telefon funksiyalaridan foydalanib, sifatli yozib oladi?

1.3. Kim ovozlashtirilgan matnni tahrir qiladi?(va h.k)

2. **(O'quvchiga)** Topshiriqlarni taqsimlang.
3. Ijtimoiy tarmoqlardan yoki qo'shimcha adabiyotlardan mavzuga oid ma'lumot to'plang.
4. To'plangan ma'lumotlarni tahrirlang.
5. Ovozashtiring.
6. Qayta tahrirlang.
7. Taqdim eting.

Eslatma: audiomatnning QR-kodini telegram kanalga yoki YouTube sahifalariga joylashtirishingiz mumkin.

Baholash mezonlari			Ball	Jami ball
1	Mavzu va maqsad uyg'unligi	Jamoa qiziqishlari asosida tanlangan mavzu, ishning amaldagi bajarish bosqichlari (xaritasi) ish maqsadini yoritishga xizmat qilgan, maqsadga erishish uchun noodatiy yondashilgan hamda maqsadga muvofiq tarzda taqdim etilgan, taqdimotdan so'ng ishning istiqboldagi natijalarini taxmin qilish, shuningdek, orttirilgan tajribadan foydalanib, xulosa chiqarish, chiqarilgan xulosadan keyingi qadamlarni chamalab ko'rish mumkin bo'lsa –	11 – 12 ball	<u>12 ball</u>
		Mavzuga oid ishning amaldagi bajarish bosqichlari (xaritasi) maqsadni yoritishga xizmat qilgan, ammo juz'iy kamchiliklar kuzatilganligi sabab maqsaddan biroz og'ish kuzatilgan, taqdimotdan so'ng ishning istiqboldagi natijalarini taxmin qilish mumkin bo'lsa-da, xulosa chiqarishda aniqlik yetishmagan bo'lsa –	8 – 10 ball	
		Mavzuga oid ishning amaldagi bajarish bosqichlari (xaritasi)da aks etgan ketma-ketlikka amal qilinmagan, bu holat maqsadning yoritilishida ham o'z ifodasini topgan, taqdimotdan so'ng ishning istiqboldagi natijalarini taxmin qilishga ehtiyoj bo'lmasa, jarayon yetarlicha xulosalanmagan bo'lsa –	3 – 7 ball	
2	Muammo va yechim	Kitobxonlik madaniyatini oshirishga targ'ib qilingan harakatlar uchun to'g'ri, samarali, keng qamrovli yechim qo'llangan;	7 – 8 ball	<u>8 ball</u>

		mavzu muammo bilan uzviy bog‘liq; bajarish bosqichlari (xarita)da fikr va mulohazalar ishda tizimli aks etgan bo‘lsa –		
		Kitobxonlik madaniyatini oshirishga targ‘ib qilingan harakatlar uchun samarali, keng qamrovli yechim izlangan bo‘lsa-da, bajarish bosqichlarida kamchiliklar kuzatilsa –	4 – 6 ball	
		Muammolarni hal qilish uchun yechim izlashga urinish bo‘lsa-da, ammo samarasiz bo‘lsa, shuningdek, muammo va yechim o‘rtasida bog‘liqlik bo‘lmasa –	1 – 3 ball	
3	Jamoa bo‘lib ishlash	Sheriklar bir-birini to‘ldirsa, o‘zining hamda sherigining vaqtini qadrlasa, navbat bilan so‘zlasa, taqdim etish jarayonida qo‘llab-quvvatlasa, audiomatn o‘qituvchi (yo‘naltiruvchi savollar orqali) tahriri asosida qayta ko‘rib chiqilgan, tahlil va tahrir qilingan, shuningdek, qahramonlar holati o‘quvchi ovozi aks etgan bo‘lsa –	4 – 5 ball	<u>5 ball</u>
		Sheriklar bir maqsad yo‘lida bir-birini to‘ldirsa, o‘zining hamda sheriklarining vaqtini qadrlasa-da, taqdim etishda sustkashlikka yo‘l qo‘ysa, audiomatn o‘qituvchi (yo‘naltiruvchi savollar orqali) tahriri asosida qayta ko‘rib chiqilgan, tahlil va tahrir qilingan, shuningdek qahramonlar holati o‘quvchi ovozi biroz samimiylikdan yiroq holda aks etgan bo‘lsa –	2 – 3 ball	
		Sheriklar orasida tarqoqlik kuzatilsa, ularning har biri o‘z fikrini ma’qullasa va buning natijasi taqdim etish jarayonida aks etsa, audiomatn o‘qituvchi (yo‘naltiruvchi savollar orqali) tahriri asosida qayta ko‘rib chiqilgan, ammo yuzaki yondashilganligi ishda aks etib turgan bo‘lsa –	1 ball	
	JAMI:			<u>25 ball</u>